

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOGLIQNI SAQLASH VAZIRLIGI  
RESPUBLIKA O'RTA TIBBIYOT VA FARMATSEVTIKA XODIMLARI MALAKASINI  
OSHIRISH VA ULARNI IXTISOSLASHTIRISH MARKAZI ANDIJON FILIALI



o'rta tibbiyot va  
xodimlari malakasini  
ularni ixtisoslashtirish  
Andijon filiali direktori  
G.A.Turaxodjaeva  
2025 y.

**Bilimlar sohasi: Sog'liqni saqlash**

**“ SHOSHILINCH TIBBIY YORDAM KO'RSATISH”**

**malaka oshirish**

**ISHCHI O'QUV DASTURI**

(o'qish hajmi – 144 kredit)

**Andijon – 2025 yil**

**Tuzuvchilar:**

Z.S. Xayitboeva

Respublika o'рта tibbiyot va farmatsevtika  
xodimlari malakasini oshirish  
va ularni ixtisoslashtirish markazi  
Andijon filiali o'qituvchisi

Ya.X Satimova

Respublika o'рта tibbiyot va farmatsevtika  
xodimlari malakasini oshirish  
va ularni ixtisoslashtirish markazi  
Andijon filiali o'qituvchisi

**Taqrizchilar**

**Toshboev Sh . O**

Bolalar anesteziologiya va reanimatsiya kafedrasini  
mudiri tibbiyot fanlar nomzodi

**Yuldashev A.A**

Respublika shoshilinch tez tibbiy yordam  
ko'rsatish ilmiy-amaliy markazi  
Andijon filiali 03 stansiyasi oliy toifali  
vrachi

O'quv dasturi Respublika o'рта tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazining Pedagogik kengashida ko'rib chiqildi va tasdiqlashga tavsiya etildi

« 8 » yanvar 2025y.

bayonnoma № 1

Pedagogik kengash raisi



G.A.Turaxodjaeva

## 1. Kirish

O‘zbekiston Respublikasida o‘rta tibbiyot xodimlarini tayyorlash, malakasini oshirish, tibbiyot muassasalarida hamshiralik ishini xalqaro andozalarga mos tarzda tashkil etish borasida zamonaviy tizim yaratilgan. Mazkur ishchi o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 maydagi “Tibbiyot va farmatsevtika ta’limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ- 4310-son va 2020 yil 7 apreldagi “Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 4666-sonli qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Soglikni saklash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli “Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish buyicha me‘yoriy xujjatlarni yanada takomillashtirish to‘g‘risidagi” buyrug‘i ijrosini ta‘minlash doirasida yaratilgan. Prezidentning 2017 yil 16 martdagi “Tez tibbiy yordam xizmati faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari dasturi” PQ–2838-son Qarori, “Shoshilinch tibbiy yordam tizimini jadal takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” 2018 yil 25yanvar PQ-3494son Qarori asosida, Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazining Andijon shahar tez tibbiy yordam stansiyasi va RSHTYOIM hududiy filiallari tez tibbiy yordam stansiyalari qoshida tez tibbiy yordamni chaqirishga mo‘ljallangan tunu kun ishlaydigan, yagona telefon raqamining uzluksiz faoliyatini ta‘minlaydigan “Call” markazi faoliyati tashkil etilishi ijrosini ta‘minlash doirasida yaratilgan.

Ishchi dasturda o‘quv fanning mazmuni, uni o‘zlashtirish shakli va usullari mujassamlashtirilgan. Ishchi dastur mazmunida nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallash alohida e‘tiborga olingan. “Shoshilinch tez tibbiy yordam ko‘rsatish” ishchi o‘quv dasturi o‘quv rejasi asosida tayyorlangan bo‘lib, o‘rta tibbiyot xodimlari (shoshilinch tez tibbiy yordam ko‘rsatish ilmiy-amaliy markazlari va davolash profilaktika muassasalarining shoshilinch tez tibbiy yordam ko‘rsatish bo‘limlari hamshiralari, feldsherlar) ni 144 kredit malaka oshirishlari uchun mo‘ljallangan.

Ishchi dasturda fanlar modullarga ajratilgan bo‘lib, kasbiy rivojlanish moduli fanlar hamda, mutaxassislik fanlar bo‘yicha ta’lim olayotganlarning har tomonlama kasbiy, ma‘naviy va siyosiy dunyoqarashlarini kengaytirishga qaratilgan yangiliklar, shuningdek, sog‘liqni saqlash tizimidagi islohatlar, tibbiyot sohasining ilm – fani va amaliyotining rivojlanishi tendensiyalari va yutuqlari, yangi texnika va texnologiyalari to‘g‘risida ma’lumotlar kiritilib, tibbiy talimda uzluksizligi va uzviylikini, fanlar va bo‘limlarni ketma-ketligini ta‘minlangan holda tinglovchilarni mustaqil ishlashga va fikrlashga qaratilgan o‘quv materiallarini qamrab olgan.

**1.1. Maqsad:** O‘qish natijasida “Shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatish” bo‘yicha Respublika shoshilinch tez tibbiy yordam ko‘rsatish ilmiy-amaliy markazi Andijon filiallarida va davolash profilaktika muassasalarining shoshilinch tez tibbiy yordam ko‘rsatish bo‘limlarida faoliyat yurituvchi o‘rta tibbiyot xodimlarining mavjud kompetensiyalarni takomillashtirish va kasbiy faoliyat uchun zarur yangi bilim va

ko'nikmalarni egallash va kasbiy darajasini oshirish. O'rta tibbiyot xodimlarni har tomonlama yetuk, mutaxassisliklari bo'yicha yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlariga erishish, shoshilinch tez tibbiy yordamning tezkorligini, texnologiyasini va samaradorligini tubdan kuchaytirish, aholiga o'z vaqtida malakali shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha davolash, ilmiy-metodik va ta'lim ishlarining butun kompleksini eng yuqori darajada tashkil etish va zamonaviy, innovatsion, tibbiy ma'lumotlar bilan ularning malakaviy xarakteristikasiga mos holda bilimlarini oshirish, shu bilan bir qatorda normativ-huquqiy hujjatlar bilan ishlash, profilaktik tadbirlar majmuasini amalga oshirish bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni chuqurlashtirish va yangilash.

## **1.2. Vazifalar:**

- Umumiy malaka oshirish o'quv jarayonini modulli tibbiy ta'lim tamoyili bo'yicha, zamonaviy, innovatsion, isbotlangan tibbiyotga asoslangan xalqaro ilmiy-amaliy ma'lumotlarni davlat talablariga mos holda tuzilgan o'quv dasturi bo'yicha tizimli tashkillashtirish va davolash profilaktika muassasalarida ko'rsatiladigan profilaktik, tashhishlash va davolash uchun kerakli amaliy ko'nikmalarni mustaqil qo'llashga tayyorgarlikni shakllantirish;
- Etika va deontologiyaning zamonaviy jihatlari bilan tanishtirish;
- Aholi o'rtasida to'g'ri, ratsional ovqatlanish, zararli odatlarga qarshi kurashish, sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash, o'sib kelayotgan avlodni sog'lomlashtirish tadbirlarini yangilash;
- Aholi o'rtasida tibbiy madaniyatni oshirish, aholi orasida ko'p tarqalgan kasalliklarni oldini olish, dispanser kuzatuvini olib borishni tashkillashtirishni takomillashtirish;
- Sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlar va me'eriyl hujjatlarni ish faoliyatida qo'llay olishga o'rgatish;
- Zamonaviy klinik protokollar va standartlar bilan tanishtirib, ular asosida ishlash ko'nikmalarini yangilashva mukammallashtirish;
- Tibbiyot sohasidagi yangiliklar, shoshilinch va favqulotda xolatlardatibbiy yordam ko'rsatishni tashkil etish;
- Shoshilinch tez tibbiy yordamga muxtoj bemorlarni zamonaviy tekshirish usullarga tayyorlash, zamonaviy yangi tibbiy texnologiyalar to'g'risida ma'lumotlar berish;
- Og'ir ahvoldagi bemor hayotiga xavf tug'diruvchi holatlarni zudlik bilan aniqlashga yo'nalgan holda yordam ko'rsatishga yondoshish;
- Inson hayotiga xavf soluvchi holatlarda bemorlarga tezkor tibbiy yordam chora tadbirlari ko'rsatish;
- Reanimatsion bemorlarni parvarishlash, salomatligini qayta tiklash va yanada mustahkamlash;
- Ko'p uchraydigan asosiy patologik holatlarda va ularga olib keluvchi havf omillarini erta aniqlash mahoratini oshirish.

### **1.3. Ta'lim oluvchilar toifasi (kontingenti):**

O'quv ishchi dastur bo'yicha Respublika shoshilinch tez tibbiy yordam ko'rsatish ilmiy-amaliy markazlari Andijon filiali bo'limlarida, tez tibbiy yordam stansiyalarida faoliyat yuritayotgan o'rta tibbiyot xodimlarining malakaviy tavsifnomasi va lavozim yo'riqnomalariga muvofiq, ya'ni mutaxassisligini tasdiklovchi xujjati bo'lgan hamshiralar uchun mo'ljallangan.

### **1.4. Ishchi o'quv dasturni o'zlashtira olish uchun zarur bo'lgan tinglovchi kompetensiyasi:**

- Tibbiy etika va deontologiyani amalda qo'llay oladigan, notiqlik san'atining asoslarini tushungan yetuk mutaxassis bo'lishi;
- Hamshiraning huquqiy meyorlarini, bemor huquqlari, roziligi, rad etishi, bemorlarning yoshiga nisbatan hususiyatlarini bilishi;
- Tibbiyot psixologiyasi va shaxslararo muloqot ko'nikmalarini amalga oshirish;
- Mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borish, yangi axboratlarni o'rganish va o'z faoliyatida qo'llay bilish;
- Shoshilinch tibbiy yordamni tashkil etishdagi direktiv hujjatlarni, bilishi va meyoriy hujjatlarni yurita olishi;
- Favqulotda holatlarda jabrlanganni birlamchi qo'riqdan o'tkazish, organizmning hayotiy muhim ko'rsatkichlarni aniqlash va monitoringini olib borish;
- O'z kasbiy salohiyati doirasida sanitar oqartuv, sanitar-gigienik, profilaktik, reabilitatsion, diagnostik va reanimatsion tadbirlarni, vrach ko'rsatmalarini amalga oshirish;
- Bemorga o'z vaqtida malakali shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish;
- Shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish ilmiy-amaliy markazlari bo'limlaridagi bemorlarni parvarish qilish;
- Kasbiy faoliyatda o'z ichki imkoniyatlarini namoyon qila olish;
- Zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.

**1.5. Ishchi dasturning dolzarbligi:** O'quv ishchi dasturining dolzarbligi amaliy tibbiyyordamning real ehtiyojlaridan kelib chiqib, amaldagi standart va bayonnomalar, dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillarida kasalliklar dignostikasi, zamonaviy davolash va profilaktika choralarini qo'llash, muammolarga yo'naltirilgan yondoshuv asosida shoshilinch yordamning zamonaviy ehtiyojlaridan kelib chiqib, o'quv materiallari va jarayonlar O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash tizimining va mutaxassislikning o'ziga xos kasbiy ehtiyojlariga qaratilgan, shuningdek tibbiyot huquqi bo'yicha amaldagi qonunchiligi, hamda zamonaviy ilmfan yutiqlariga muvofiqligi, tibbiyot fani va amaliyotidagi mavjud vaziyat o'zgarishini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

**1.6. Ishchi dastur hajmi:** 144 kredit (kuniga 6 kredit,haftada 36 kredit).

**1.7. O‘qish shakli:**

- kunduzgi - o‘qish ishdan ajralgan holda
- on/offline, masofaviy / a‘nanaviy o‘qish ishdan ajralgan/ ajralmagan holda

**1.8. Mashg‘ulotlarni o‘tish tartibi:** Mashg‘ulotlar “Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish to‘g‘risidagi” O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli buyrug‘i va markazning ichki tartib-qoidalari asosida rejalashtiriladi va amalga oshiriladi.

Mashg‘ulotlar 8-30 da boshlanib, 13-10 da tamom bo‘ladi. Tushlik - 30 daqiqa. Kuniga 6 kreditdan, xaftasiga 36 kredit, 4 xaftada 144 kredit.

**1.9.Malaka oshirishdan so‘ng:** O‘quv kursni to‘liq o‘zlashtirgan va yakuniy attestatsiyani topshirgan tinglovchilarga “Shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatish” bo‘yicha umumiy malaka oshirganligi haqida Davlat talablari namunasidagi sertifikat taqdim etiladi.

## **2. REJALASHTIRILAYOTGAN TA’LIM NATIJALARI**

### **2.1. Rejalashtirilayotgan ta’lim natijalaridan so‘ng**

**takomillashtirilishi (yangilanishi) lozim bo‘lgan kasbiy kompetensiyalar:**

- Mutaxassisning fikrlash, tahlil va sintez qilish, jamoa bilan ishlash va uni boshqarish, intizomlilik, boshlagan ishini mantiqiy yakuniga yetkazishga tayyorligini rivojlantiradi;
- O‘z-o‘zini baholash, tanqidiy tahlil qilish va to‘g‘ri qarorlarni qabul qilish, aholi sog‘lig‘ini saqlash va mustahkamlash doirasida, aholi orasida tibbiy madaniyat, sog‘lom turmush tarzi, kasallik rivojlanishining oldini olish borasida profilaktik sanitariya targ‘ibot tadbirlarni olib borish, sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini shakllantirishda innovatsion texnologiyalarni keng tadbir etish qobiliyati yangilanadi;
- Intizomiy, ma‘muriy, fuqarolik, jinoiy javobgarlikni amalga oshirayotganda tibbiy xatolarning oldini olish bo‘yicha o‘z faoliyati natijalarini tahlil qilish tayyorligi va amalga oshiradi;
- Bemorlarni tashxislashda foydalaniladigan tibbiy va texnik jihozlar bilan ishlash, shaxsiy kompyuter texnologiyalari, turli manbalardan ma‘lumot olish, kompyuter tarmoqlarida ma‘lumotlar bilan ishlash imkoniyati kengayadi;
- Kasbiy muammolarni hal qilishda zamonaviy axborot texnologiyalarining imkoniyatlaridan foydalanadi;
- Tibbiy-ijtimoiy va hamkorlik faoliyatini olib borish, kelishmovchiliklarni hal etish, hamkasblar, patsientlar va ularning yaqinlari bilan to‘g‘ri muloqot qilish qobiliyati mukammallashadi;
- Favqulotda xolatlarda samarali hamshiralik va feldsherlik ishini olib boradi;

- Bemorlarni xolatiga qarab yordam ko‘rsatadi;
- Shoshilinch holatlarni o‘z vaqtida tashhislash, birlamchi tezkor yordamni amalga oshirish, ko‘nikmalarni mukamallashadi;
- Respirator kasalliklarda, yurak-qon tomir tizimi kasalliklarida, o‘tkir miya qon aylanishi buzilishlarda shoshilinch yordam ko‘rsatish qobiliyati mukamallashadi;
- Akusherlik-ginekologiyadagi o‘tkir holatlarda shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatish qobiliyati mukamallashadi;
- Urologiyadagi o‘tkir holatlarda, “O‘tkir qorin” sindromida shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatish qobiliyati mukamallashadi;
- O‘tkir zaxarlanishlarda shoshilinch tibbiy yordam kursatish ko‘nikmalari yangilanadi;
- Bemorlar kasalliklarini aniqlashda qo‘llaniladigan zamonaviy tibbiy tekshirish usullarini o‘zlashtiradi;
- Zamonaviy tibbiy jihozlarni ishlatish, texnik ishlov berish vazifalari takomillashadi;
- Hamshiralik va feldsherlik ishini amalga oshirish va tashkil etishning ilg‘or shakllari va usullarini ishlab chiqish, ommalashtirish, tajriba almashish hamda boshqa kasbiy faoliyat turlariga moslashtirish qobiliyatiga ega bo‘ladi.

### 3.DASTUR MAZMUNI

#### 3.1.“ Shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatish ” malaka oshirish kursi ishchi o‘quv ishchi rejasi.

№	Modul va mavzular nomi	Kredit	Auditoriya mashg‘ulotlari		Seminar	Attestatsiya
			Nazariy mashg‘ulot	Amaliy mashg‘ulot		
1.0	Kasbiy rivojlantirish moduli	32	16	16		
1.1	<b>Modul:O‘zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati</b>	4	4	-		
1.1.1	2019-2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasining Sog‘liqni saqlash tizimini yanada rivojlantirish konsepsiyasining maqsadlari vazifalari va asosiy yo‘nalishlari.		2			
1.1.2	Sog‘liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlarini joriy etishning huquqiy asoslari.		2			

<b>1.2</b>	<b>Modul:Tibbiyotda zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalari</b>	<b>6</b>	<b>2</b>	<b>4</b>		
1.2.1	Zamonaviy axborot texnologiyalarining tibbiyot sohasidagi o'rnini va ahamiyati.		2			
1.2.2	Ofis dasturlari bilan tanishish va sohaga oid hujjatlar tayyorlash.			2		
1.2.3	Internet tarmog'ida ishlash,axborot qidirish ma'lumotlar bazasidan foydalanish.			2		
<b>1.3</b>	<b>Modul: Sanitariya epidemiologik tartib meyorlari va infeksiyon nazorat</b>	<b>6</b>	<b>4</b>	<b>2</b>		
1.3.1	Sanitariya epidemiologiya sohasida qo'llaniladigan meyoriy hujjatlar va infeksiyon nazorat.		2			
1.3.2	Karantin va o'ta xavfli yuqumli kasalliklar profilaktikasi. OIV/OITS haqida tushuncha.		2			
1.3.3	DPM larda shifoxona ichi infeksiyalari profilaktikasi.			2		
<b>1.4</b>	<b>Modul: Sterilizatsiyada zamonaviy usullar va texnika xavfsizligi</b>	<b>6</b>	<b>2</b>	<b>4</b>		
1.4.1	Aseptika va antiseptika haqida tushuncha. Sterilizatsiya jarayoni. Tibbiy asboblarni sterilizatsiyadan oldingi tozalash qoidalari va usullari.		2			
1.4.2	Sterilizatsiya, turlari, zamonaviy usullari. Gazli, plazmalı va ozonli sterilizatsiya usullari.			2		
1.4.3	Sterilizatsiya xonasida texnika xavfsizligi qoidalari.			2		
<b>1.5</b>	<b>Modul: Sog'lom turmush asoslari, to'g'ri ovqatlanish mezonlari va jismoniy faollik</b>	<b>10</b>	<b>4</b>	<b>6</b>		
1.5.1	Salomatlik tushunchasi. Salomatlik darajasini ko'rsatkichlari va ularni aniqlash.		2			
1.5.2	Salomatlik indeksini baholash.			2		
1.5.3	Sog'lom turmush tarzi yo'nalishlari. To'g'ri ovqatlanish mezonlari.		2	-		
1.5.4	Jismoniy faollik. Asosiy sog'lomlashtiruvchi mashg'ulotlar.			2		
1.5.5	Jismoniy mashqlarni turli yoshdagi sog'lom odamlarda hamda bemorlarda qo'llash metodikasi.			2		
<b>2.0</b>	<b>Mutaxassislik fanlar moduli</b>	<b>104</b>	<b>44</b>	<b>60</b>		
<b>2.1</b>	<b>Modul: Favqulodda vaziyatlar (FV) va ular oqibatida zarar ko'rganlarga (jabrlanganlarga) tibbiy yordam ko'rsatishning asosiy qoida va bosqichlari.</b>	<b>20</b>	<b>10</b>	<b>10</b>		

2.1.1	Favqulodda vaziyatlar (FV) haqida tushuncha. Favqulodda vaziyatlar tasnifi, uning turlari, kelib chiqish sabablari manbalari.		2			
2.1.2	Jabrlanganlarni tibbiy saralash va evakuatsiya qilish. Ommaviy talofat o'chog'ida birinchi yordam ko'rsatish.			2		
2.1.3	Jabrlanuvchini ahvolini baholash, asosiy hayotiy ko'rsatkichlarni aniqlash. Birlamchi va ikkilamchi ko'rikdan o'tkazish.			2		
2.1.4	Terminal holat. Terminal holatning bosqichlari. Klinik va biologik o'lim.		2			
2.1.5	Yurak - o'pka reanimatsiyasi va uni bajarish algoritmi.			2		
2.1.6	Baxtsiz hodisalar va ularda shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish.		2			
2.1.7	O'tkir zaxarlanishlar. Zaharlanishning asosiy turlari, belgilari.		2			
2.1.8	Zaharlanishga gumon qilingan bemorga bosqichma-bosqich shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish.			2		
2.1.9	Atrof-muhit omillari ta'sirida kelib chiquvchi shoshilinch holatlar.		2			
2.1.10	Atrof-muhit omillari ta'sirida kelib chiquvchi shoshilinch holatlarda tez tibbiy yordam ko'rsatish.			2		
<b>2.2</b>	<b>Modul: Respirator kasalliklarda shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish.</b>	<b>12</b>	<b>4</b>	<b>8</b>		
2.2.1	O'tkir nafas yetishmovchiligi. Gipoksiya turlarida shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish.		2			
2.2.2	Nafas olishni baholash. O'pkalarning sun'iy ventilyatsiyasi. AMBU qopchasi va havo o'tkazgichlarni qo'llash texnikasi.			2		
2.2.3	Nafas olish tizimining o'tkir kasalliklari, sabablari, klinikasi.		2			
2.2.4	Nafas olish tizimining o'tkir kasalliklarida shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish.			2		
2.2.5	Ingalyatorlar va ulardan foydalanish. Pikflumetriya. Ingalyatsiya o'tkazish texnikasi.			2		

2.2.6	Nafas yullari obstruksiyasi. Yot jism nafas yo‘llariga tushganda Geymlix usulini qo‘llash texnikasi.			2		
<b>2.3</b>	<b>Modul:Yurak-qon tomir tizimi kasalliklarida shoshilinch holatlar.</b>	<b>22</b>	<b>8</b>	<b>14</b>		
2.3.1	Yurak-qon tomir tizimi kasalliklarining asosiy simptomlari va tekshirish usullari. EKG yozish texnikasi.			2		
2.3.2	O‘tkir koronar sindromi. Turlari, sabablari va klinik belgilari.		2			
2.3.3	O‘tkir koronar sindromida shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatish.			2		
2.3.4	O‘tkir yurak yetishmovchiligi,turlari, sabablari, klinikasi.		2			
2.3.5	O‘tkir yurak yetishmovchiligida shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatish.			2		
2.3.6	Yurak ritmining buzilishi (aritmiyalar) sabablari, klinikasi.		2			
2.3.7	Aritmiyalarda shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatish.			2		
2.3.8	Qon aylanishning to‘xtashi turlarida shoshilinch yordam ko‘rsatish algoritmi. Defibrillyatsiyaga ko‘rsatmalar, qo‘llash texnikasi.			2		
2.3.9	O‘tkir qon tomirlar yetishmovchiliklari. Sabablari, klinikasi va diagnostikasi.		2			
2.3.10	O‘tkir qon tomirlar yetishmovchiliklarida shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatish.			2		
2.3.11	Shok turlari va ularda bemorlarga yordam ko‘rsatish taktikasi.			2		
<b>2.4</b>	<b>Modul:Bosh miya qon tomirlarining o‘tkir buzilishida shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatish.</b>	<b>8</b>	<b>4</b>	<b>4</b>		
2.4.1	Bosh miya qon tomirlarining o‘tkir yetishmovchiliklari,sabablari,turlari.		2			
2.4.2	Insultlar,turlari,klinik belgilari va ularda shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatish.			2		
2.4.3	Komalar, turlari, sabablari, klinik belgilari.		2			
2.4.4	Komaning og‘irlik darajasini aniqlash. Komalardatez tibbiy yordam ko‘rsatish algoritmi.			2		
<b>2.5</b>	<b>Modul: O‘tkir qon ketishlarda shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatish.</b>	<b>6</b>	<b>2</b>	<b>4</b>		

2.5.1	O'tkir qon ketishlar,sabablari, turlari, klinik belgilari.		2			
2.5.2	Qon ketishni vaqtinchalik va uzil-kesil to'xtatish usullari.			2		
2.5.3	O'tkir qon ketishda shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish.			2		
<b>2.6</b>	<b>Modul: Travmatik jarohlarda shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish.</b>	<b>18</b>	<b>8</b>	<b>10</b>		
2.6.1	Jarohatlar,sabablari,turlari.		2			
2.6.2	Pnevmtoraks,turlari va ularda shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish tamoyillari.		2			
2.6.3	Qorin bo'shlig'i ochiq va yopiq jarohatlarida shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish.			2		
2.6.4	Kuyish,turlari,belgilari. Kuyish kasalligi. Shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish tamoyillari.		2			
2.6.5	Kuyish yuzasini turli usullar bilan aniqlash. Kuyishda shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish algoritmi.			2		
2.6.6	Desmurgiya,bog'lamlar turlari.Tanani turli sohalariga bog'lamlarni qo'yish qoidalari.			2		
2.6.7	Suyak sinishi, sabablari, turlari va klinik belgilari.		2			
2.6.8	Suyak sinishining turiga ko'ra tez tibbiy yordam ko'rsatish.			2		
2.6.9	Transport immobilizatsiyasi. Shinalar, turlari. Shinalarni qo'yish qoidalari.			2		
<b>2.7</b>	<b>Modul: "O'tkir qorin" sindromida shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish.</b>	<b>6</b>	<b>2</b>	<b>4</b>		
2.7.1	"O'tkir qorin" sindromi tushunchasi, sabablari, klinik belgilari.		2			
2.7.2	"O'tkir qorin" sindromida bemorlarni tekshirish usullari.			2		
2.7.3	Ginekologiyada "O'tkir qorin"sindromi, qiyosiy tashhishlash va tez tibbiy yordam ko'rsatish algoritmi.			2		
<b>2.8</b>	<b>Modul:Urologiyadagi shoshilinch holatlarda tez tibbiy yordam ko'rsatish.</b>	<b>6</b>	<b>4</b>	<b>2</b>		
2.8.1	Buyrak va siydik yo'llari yallig'lanishi kasalliklari, sabablari, klinik belgilari.		2			
2.8.2	O'tkir buyrak sanchig'i, o'tkir siydik tutilishi, gematuriya sindromi.		2			
2.8.3	Buyrak va siydik yo'llari tizimi kasalliklarida tekshirish usullari va tez tibbiy yordam ko'rsatish algoritmi.			2		

<b>2.9</b>	<b>Modul: Akusherlikdagi shoshilinch holatlarda tez tibbiy yordam ko'rsatish.</b>	<b>6</b>	<b>2</b>	<b>4</b>		
2.9.1	Tug'ruq, tug'ruq davrlari. Tug'ruqni klinik kechishi.		2			
2.9.2	"Ko'cha, uydagi tug'ruqlar"da shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish.			2		
2.9.3	Yangi tug'ilgan chaqaloq holatini baholash. Chaqaloqlar asfiksiyasi. Chaqaloqlar reanimatsiyasi			2		
<b>3.0</b>	<b>Tanlov fanlar moduli</b>	<b>4</b>			<b>4</b>	
3.1	Koronavirus infeksiyasi va uni oldini olish chora - tadbirlari				4	
	<b>Attestatsiya</b>	<b>4</b>				<b>4</b>
	<b>Jami:</b>	<b>144</b>	<b>60</b>	<b>76</b>	<b>4</b>	<b>4</b>

### 3.2. O'quv modullari tasnifi:

- Favqulodda vaziyatlar (FV) va ular oqibatida zarar ko'rganlarga (jabrlanganlarga) tibbiy yordam ko'rsatishning asosiy qoida va bosqichlari.
- Respirator kasalliklarda shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish.
- Yurak-qon tomir tizimi kasalliklarida shoshilinch holatlar
- Bosh miya qon tomirlarining o'tkir buzilishida shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish.
- O'tkir qon ketishlarda shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish.
- Travmatik jarohlarda shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish.
- "O'tkir qorin" sindromida shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish.
- Urologiyadagi shoshilinch holatlarda tez tibbiy yordam ko'rsatish.
- Akusherlikdagi shoshilinch holatlarda tez tibbiy yordam ko'rsatish.

#### 3.2.1. Modul: O'zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati.

<b>O'quv moduliga ajratilgan kredit:</b>	<b>4 kredit</b>
--	-----------------

<p><b>O‘quv moduli mazmuni:</b></p>	<p>O‘zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosatining asosiy yunalishlari. Sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirishning maqsad va vazifalari. Sog‘liqni saqlash tizimida olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar. 2019-2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasining Sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish konsepsiyasining maqsadi va vazifalari. Onalar va bolalarga tibbiy yordam ko‘rsatish tizimini takomillashtirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar.</p> <p>Davlat-xususiy sheriklik va tibbiyot turizmini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun,mohiyati.Sog‘liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi moduli va davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmining xuquqiy asoslari. Korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari.</p>
<p><b>O‘quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:</b></p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• O‘zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini;</li> <li>• Respublikamizdagi milliy dasturlarning asosiy yo‘nalishlarini;</li> <li>• Siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy ayniqsa, tibbiyotga tegishli bo‘lgan Prezident farmonlarini;</li> <li>• 2019-2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasining Sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish konsepsiyasining maqsad va vazifalarini;</li> <li>• Davlat-xususiy sherikliklik va tibbiyot turizmini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarni;</li> <li>• Onalik va bolalikni muhofaza qilish bo‘yicha vazifalarini;</li> <li>• Insoniy fazilatlarni shakllantirib borishi va jamoada vijdonan o‘z vazifalarini bajarish mas’uliyatini his etish;</li> <li>• Davlat-xususiy sheriklik va tibbiyot turizmini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarni;</li> </ul> <p>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunining mazmun-mohiyatini.</p>

<p><b>O‘quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:</b></p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Tibbiyotga tegishli bo‘lgan Prezident farmonlarini amaliyotga tadbiriq etish bo‘yicha yo‘l xaritalari tuzish;</li> <li>• Jamoada vijdonan o‘z vazifalarini bajarish mas’uliyatini his etish mas’uliyatiga ega bo‘lish;</li> <li>• SSVning qarorlari va buyruqlarini joylarda bajarilishini ta’minlash;</li> <li>• Milliy qadriyatlarimizni kelajak avlodga yetkazishni ta’minlash.</li> </ul>
<p><b>Adabiyotlar:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –Toshkent 2016 y.</li> <li>2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning “Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.</li> <li>3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2018 yil 7-dekabrda 2019- 2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasining Sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risidagi farmoni.</li> <li>4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyovning 2020-yil 12-noyabrda birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari faoliyatiga mutlaqo yangi mexanizmlarni joriy qilish va sog‘liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlar samaradorligini yanada oshirish chora –tadbirlari tug‘risidagi farmoni.</li> <li>5.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2020-yil 12-noyabrda Sog‘liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlarini Sirdaryo viloyatida joriy etish chora- tadbirlari to‘g‘risidagi qarori.</li> <li>6.O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga karshi kurashish tug‘risida”gi qonuni. 2017 yil 3-yanvar</li> </ol> <p><b>Elektron ta’lim resurslari</b></p> <p>-<a href="http://vov.minzdrav.uz">vov.minzdrav.uz</a>–</p> <p><a href="http://vov.gov.uz">vov.gov.uz</a></p> <p><a href="http://vov.press-service.uz">vov.press-service.uz</a></p> <p><a href="http://vov.parlament.gov.uz">vov.parlament.gov.uz</a></p> <p>- <a href="http://vov.uza.uz">vov.uza.uz</a></p> <p>- <a href="http://vov.cbu.uz">vov.cbu.uz</a>-</p> <p>- <a href="http://vov.lex.uz">vov.lex.uz</a></p> <p>- <a href="http://vov.ziyonet.uz">vov.ziyonet.uz</a></p>	

### 3.2.2 Modul. Tibbiyotda zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalari

<p><b>O‘quv moduliga ajratilgan kredit:</b></p>	<p><b>6 kredit</b></p>
<p><b>O‘quv moduli</b></p>	<p>Tibbiyot sohasida kompyuter texnologiyalaridan foydalanishdagi nazariy va amaliy bilimlar. Tibbiyotda</p>

<p><b>mazmuni:</b></p>	<p>qo'llanilayotgan fizik va matematik modellar to'g'risidagi zamonaviy nazariy bilimlar. Tibbiy statistik ma'lumotlarni to'g'ri tahlil qilish va ulardan kasallikning oldini olish yoki davolashda qo'llash. Axborot texnologiyalaridan foydalanish borasida amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish, internet tarmog'ida ishlash, axborot qidirish va ulardan foydalanish, tibbiyot axborot tizimlari xususiyatlari, ma'lumotlar bazasini tashkil etish, ekspert tizimlari va axborot xavfsizligi asoslarini bilish.</p>
<p><b>O'quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:</b></p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Kompyuterga axborot kiritish va axborot olish qoidalarini;</li> <li>• kompyuterni tuzilishi to'g'risida qisqacha ma'lumotni, kompyuterning foydali va zararli tomonlarini, kompyuterda ishlash jarayonida sanitariya qoidalariga rioya qilishni;</li> <li>• tibbiyotda zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalari bilan ishlashni;</li> <li>• sog'lom jamiyat qurishda axborotlashtirishning o'rnini;</li> <li>• sog'liqni saqlash tizimini axborotlashtirishda jahon tajribalarini;</li> <li>• axborotlarga ishlov berish, kiritish va chiqarish qurilmalari va ularning tavsifini;</li> <li>• tibbiyotda aloqa va kommunikatsiyavositalarini qo'llashni;</li> <li>• ma'lumotlarni saqlash, qayta ishlash va uzatish;</li> <li>• tibbiyot xodimlari uchun planshetlardan foydalanib, <i>online</i>- registratsiya qilish va ulardan foydalana olishi.</li> </ul>
<p><b>O'quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:</b></p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• kompyuter texnikasibilanishlashdatexnika xavfsizligini;</li> <li>• dasturlar bilan ishlashni;</li> <li>• ma'lumotlar bazasi yaratish, ular ustida ishlashni va dasturlash asoslarini;</li> <li>• kompyutergrafikusullaridan foydalana olishni;</li> <li>• tibbiy axborotlaralmashinuvivauniiizlashdainternet tarmog'idaishlashni;</li> <li>• elektronpochtadasturibilanishlashni;</li> <li>• AKT sog'liqnisaqlashtizimidaqo'llashni.</li> </ul>

**Adabiyotlar:**

1. Djurayev O.N “Axborot tizimlari va texnologiyalari” Тошкент- 2020 yil
2. Aminov S.M.“Axborot kommunikatsion texnologiyalar” Тошкент-2020 yil
3. Tursunov B.T, Nazarov.R.N. “Ta’limda axborot texnologiyalari” Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti - 2021 yil
4. Ayupov R.H. “Ta’limda axborot texnologiyalari” TDPU nashriyoti -2020 yil

**Elektron ta’lim resurslari**

<http://vvv.edu.uz>

<http://vvv.pedagog.uz>

[vvv.tma.uz,](http://vvv.tma.uz)

[vvv.lex.uz](http://vvv.lex.uz)

<https://ru.pinterest.com/vkhamidov/>

**3.2.3 Modul. Sanitariya epidemiologik tartib meyorlari va infeksiyon nazorat.**

<b>O‘quv moduliga ajratilgan kredit:</b>	<b>6 kredit</b>
<b>O‘quv moduli mazmuni:</b>	Davolash profilaktika muassasalarida shifoxona ichi infeksiyasini oldini olish borasida qabul qilingan normativ hujjatlar. Shifoxona ichi infeksiyasini oldini olishda akusherkalarning vazifalari. Tibbiy muolajalar orqali yuqadigan kasalliklarni oldini olish. Yuqumli kasalliklar (o‘ta havfli va karantin infeksiyalar, OITS)ni tarqalishini oldini olish. OIV/OITSGa oid normativ hujjatlar. OIV etiologiya va patogenezi, epidemiologiyasi. OIV/OITS infeksiyasi. Kasalliklardan (COVID19) himoyalaniş tamoyillari. Himoya kiyimlari va ulardan foydalanish tartibi.
<b>O‘quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:</b>	<ul style="list-style-type: none"><li>• sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlarini (SanQvaM);</li><li>• davolash-profilaktika muassasalariga qo‘yiladigan sanitar talablarni va “infeksiyon nazorat komissiyasi” ish faoliyatini;</li><li>• sanitar meyor va qoidalar bo‘yicha amaldagi hujjatlarni;</li><li>• OIV/OITSGa oid normativ hujjatlarni;</li><li>• OIV etiologiya va patogenezi, epidemiologiyasini;</li><li>• OIV yuqish yo‘llari, tekshirish usullari, klinikasi va bemorlar parvarishini;</li><li>• kasalliklardan (COVID -19) himoyalaniş tamoyillarini.</li></ul>

<p><b>O‘quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:</b></p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• shifoxona ichi infeksiyasini oldini olishda SanQvaMlarga rioya qilishni;</li> <li>• muolajalar vaqtida avariya holatlari yuzaga kelishini oldini olishni;</li> <li>• avariya holatlari yuzaga kelganda o‘tkaziladigan chora-chadbirlar yig‘indisini;</li> <li>• o‘ta xavfli va karantin infeksiyalarda epidemiyaga qarshi o‘tkaziladigan chora-tadbirlarni;</li> <li>• himoya kiyimlari va ulardan foydalanish tartibini.</li> <li>• qo‘llarga gigienik ishlov berish usullari, texnikasi va qo‘llarni yuvish tartibini.</li> </ul>
<p><b>Adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. L.A. Ponomareva, E.K.Kazakov, B.E.TO‘xtarov, L.K.Abduqodirova, I.K.Dravskix, S.A.Sharipova, X.A.Sadullaeva “Umumiy gigiena bilan ekologiya” Toshkent-2009</li> <li>2. G.T. Iskandarova “Mehnat gigiyenasi” Toshkent-2010</li> <li>3. Z.T Rajamurodov, B.M Bozorov, A.I Rajabov, D.G’ Hayitov “yosh fiziologiyasi va gigiyenasi” Toshkent -2013</li> <li>4. F.I Salomova, Sh.T Iskandarova “Gigiyena. Tibbiy ekologiya” Toshkent-2020</li> <li>5. S.B. Israilova “Sanitariya epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati” o‘quv qo‘llanma. Turon nashr. Samarqand-2026</li> <li>6. SanQvaM № 0342/17 - 10 yanvar 2017 y.</li> <li>7. <a href="https://e-library.sammu.uz/uz/book/5400">https://e-library.sammu.uz/uz/book/5400</a></li> <li>8. <a href="https://project.adliya.uz/oz/site/authority?id=11455">https://project.adliya.uz/oz/site/authority?id=11455</a></li> </ol>	

### 3.2.4 Modul. Sterilizatsiyada zamonaviy usullari va texnika xavfsizligi

<p><b>O‘quv moduliga ajratilgan kredit:</b></p>	<p><b>6 kredit</b></p>
<p><b>O‘quv moduli mazmuni:</b></p>	<p>Sterilizatsiyani olib borish xonalaridagi aseptika va antiseptika tadbirlari, ularning talab darajasida bajarilish tartib va qoidalari. Markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan sterilizatsiya bo‘limlari turlari. Zamonaviy sterilizatsiya apparatlari va texnika xavfsizligi masalalari. Sterilizatsiyaning sifatini ta‘minlovchi tadbirlar, uni tekshirish uchun zarur indikatorlar.</p>
<p><b>O‘quvmoduli yakunida tinglovchi</b></p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Sterilizatsiya sohasi bo‘yicha mavjud bo‘lgan</li> </ul>

<b>bilishi lozim:</b>	fizikaviy, kimyoviy, mexanik, biologik, aralash va yangi zamonaviy usullar to‘g‘risida to‘liq ma‘lumotlarga ega bo‘lishi; <ul style="list-style-type: none"> <li>• sterilizatsiyaning zamonaviy usullarini;</li> <li>• gazli sterilizatsiya usullarini;</li> <li>• plazmali va ozonli sterilizatsiya usullarini;</li> <li>• sterilizatorlar va avtoklavlar bilan ishlash davridagi texnika xavfsizligi qoidalari haqida tushunchaga ega bo‘lishi.</li> </ul>
<b>O‘quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• tibbiy asboblarni quruq issiqlik shkafida sterillashni,</li> <li>• tibbiy vositalarning sterillanganlik sifatini tekshirish usullarini,</li> <li>• texnika xavfsizligi qoidalariga amal qilish algoritmini;</li> <li>• tibbiy vositalarning sterilizatsiya sifatini tekshirish usullarini bajara olishi.</li> </ul>
<p><b>Adabiyotlar:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Avtoklavlash va sterilizatsiyalashda texnika xavfsizligi buyicha o‘rta tibbiyot xodimlari uchun o‘quv-dasturi qo‘llanma. -2014y</li> <li>2. Avtoklavlash va sterilizatsiyalashda texnika xavfsizligi buyicha o‘rta tibbiyot xodimlari uchun o‘quv uslubiy qullanma. Tashkent.2009.y</li> <li>3. O‘zbekiston respublikasi sanitariya qoidalari, meyorlarivagigieniknormativlari. O‘zR SanQvaM № 0365 -19</li> <li>4. Tibbiy anjom-asboblarni va buyumlarni sterilizatsiya qilish markazlarini loyihalashtirish, qurish va ekspluatatsiya qilish sanitariya qoidalari va meyorlari.</li> </ol> <p><b>Elektron ta’lim resurslari</b></p> <p><a href="http://vvv.edu.uz">http://vvv.edu.uz</a>  <a href="http://vvv.pedagog.uz">http://vvv.pedagog.uz</a>  <a href="http://vvv.tma.uz">vvv.tma.uz,</a>  <a href="http://vvv.lex.uz">vvv.lex.uz</a>  <a href="https://ru.pinterest.com/vkhamidov/">https://ru.pinterest.com/vkhamidov/</a></p>	

### 3.2.5. Modul. Sog‘lom turmush asoslari, to‘g‘ri ovqatlanish mezonlari va jismoniy faollik

<b>O‘quv moduliga ajratilgan kredit:</b>	<b>10 kredit</b>
<b>O‘quv moduli mazmuni:</b>	Sog‘lom turmush tarzini tashkil etish asoslari. Sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda maqsadli guruhlar bilan ishlash. Atrof muhit va ekologik omillarning salomatlikka ta’siri, to‘g‘ri ovqatlanish prinsiplari, kun tartibini to‘g‘ri tashkil etish, jismoniy faollik va chiniqishning salomatlikdagi ahamiyati, zararli odatlarning organizmga ta’siri. Tibbiy

	ko'riklarni tashkil etish va aholini jalb etish.
<b>O'quvmoduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Salomatlik tushunchasi, salomatlik darajasi ko'rsatkichlarini;</li> <li>• sog'lom turmush tarzini shakllantirish tamoyillarini;</li> <li>• salomatlikka ta'sir etuvchi omillar:</li> <li>✓ irsiy, ekologik tibbiy va hayot tarzi va salomatlik mexanizmlarini bilishi, tahlil qila olishni;</li> <li>• atrof muhit va ekologik omillarning salomatlikka ta'sirini;</li> <li>• salomatlikni mustahkamlashga qaratilgan standart va algoritmlarni;</li> <li>• to'g'ri ovqatlanish prinsiplarini;</li> <li>• kun tartibini to'g'ri tashkil etishni;</li> <li>• jismoniy faollik va chiniqishning salomatlikka ta'sirini;</li> <li>• zararli odatlarning organizmga ta'sirini;</li> <li>• tibbiy ko'riklarni tashkil etish va aholini jalb etishni;</li> <li>• sog'lom turmush tarzini maqsadli guruhlar o'rtasida shakllantirish va targ'ib etishni.</li> </ul>
<b>O'quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• aholining turli guruhlarida (yoshiga, mehnat turiga, jinsiga qarab) psixoemotsional holatni aniqlashni;</li> <li>• sog'lom turmush tarzini qo'llab quvvatlashda maqsadli guruhlarini shakllantirish va ular o'rtasida suhbatlar olib borishni;</li> <li>• individual salomatlik va uni asrash yo'llarini;</li> <li>• jismoniy faollik, to'g'ri ovqatlanish prinsiplari, zararli odatlarning salomatlikka ta'siri mavzularida aholi o'rtasida tadbirlar tashkil etishni;</li> <li>• maqsadli guruhlar o'rtasida targ'ibot ishlarini olib borishni;</li> <li>• inson salomatligini saqlash va tiklashda jismoniy tarbiya mashqlari kompleksini;</li> <li>• jismoniy mashqlarni har xil yoshdagi sog'lom odamlarda va bemorlarda qo'llash uslublarini;</li> <li>• Skandinaviya yurish usullarini.</li> </ul>

### **Adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 noyabrdagi “Aholining sog‘lom ovqatlanishini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ 4887-sonli qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 18 dekabrda “Yuqumli bo‘lmagan kasalliklarning profilaktikasini, sog‘lom turmush tarzini qo‘llab – quvvatlash va aholining jismoniy faolligi darajasini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 4063-sonli qarori.
3. Irgashev.Sh.B. Formirovanie zdorovogo obraza jizni i sanitarno prosvetitel'naya rabota. Jurnal "Organizatsiya i upravlenie zdravooxraneniem" № 12.2020 g.
4. Irgashev. Sh.B. Tursunxodjaeva. L.A. Pervichnaya profilaktika narkozavisimosti sredi uchasixsya obrazovatel'nyx shkol, Uchebnoe – metodicheskoe posobie dlya uchiteley, Ministerstvo zdravooxraneniya Respublike Uzbekistan. Tashkent 2011 g.
5. Sh.Qurbonov, A.Qurbonov “To‘g‘ri ovqatlanish qoidalarini” 2014 yil  
Elektron adabiyotlar va ilmiy maqolalar;  
inlibrary.uz – sog‘lom turmush maqolalari  
globalsciences.uz – ilmiy tadqiqotlar  
avitsenna.uz – ovqatlanish bo‘yicha tavsiyalar  
yuz.uz – sog‘lom turmush dasturlari  
hujjat 24.uz – o‘quv materiallar

### **3.2.5.Modul: Favqulodda vaziyatlar va ular oqibatida zarar ko‘rganlarga (jabrlanganlarga) tibbiy yordam ko‘rsatishning asosiy qoida va bosqichlari**

<b>O‘quv moduliga ajratilgan kredit:</b>	<b>20 kredit</b>
<b>O‘quv moduli mazmuni:</b>	Favqulodda vaziyatlar haqida tushuncha. Favqulodda vaziyatlar tasnifi, uning turlari, kelib chiqish sabablari, manbalari. Insonlar orasida favqulotda vaziyatlar va shoshilinch xolatlarda o‘z-o‘ziga va bir-biriga yordam berishni targ‘ib qilish. Favqulotda xolatlar turlari. Ularda umumiy extiyotkorlik choralarini ko‘rish. Ommaviy talofat o‘chog‘ida birinchi yordam kursatish. Tibbiy saralash (traj usuli) va evakuatsiya qilish. Tibbiy evakuatsiya bosqichlari. Evakuatsiya bosqichlarida tibbiy yordam turlari. Favqulotda vaziyatlarda fuqaro muhofazasi bo‘yicha o‘tkaziladigan chora-tadbirlar. Shoshilinch tez tibbiy yordam xodimining xuquqiy ma‘suliyatlari, bemor xuquqlari, roziligi, rad etishi. Shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatuvchi xodimning o‘rni va majburiyatlari. Asosiy hayotiy ko‘rsatkichlar. Jabrlanuvchini

	<p>ahvolini baholash, birlamchi va ikkilamchi kuriqdan o'tkazish. Bemor uchun zarur vaziyatni yaratish. Terminal holatlar, klinik va biologik o'lim belgilari. Hayotiylikni ushlab turishni ixtisoslashtirilgan usullari.</p> <p>Aholi uchun havfsiz muhitni yaratish, jarohatlar va baxtsiz hodisalarning oldini olish. Baxtsiz xodisalar va atrof muhit omillari ta'sirida kelib chiquvchi shoshilinch holatlar(cho'kish, krash sindrom,bug'ilish, sovuq urishi, issiqlik urishi, elektrdan shikastlanish, hasharotlar chaqishida va xayvonlar tishlaganda) tez tibbiy yordam ko'rsatish.</p> <p>O'tkir zaxarlanishlar, sabablari, belgilari.</p> <p>Zaharlanishga gumon qilingan bemorga bosqichma- bosqich shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish algoritmi.</p>
<p><b>O'quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:</b></p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Favqulodda vaziyatlar tushunchasini;</li> <li>• Favqulodda vaziyatlar tasnifi, uning turlari, kelib chiqish sabablari, manbalari;</li> <li>• Favqulotda vaziyatlar sodir bo'lganda tez tibbiy yordam ko'rsatishni;</li> <li>• Favqulodda xolatlarda bemorlarni ruhan qo'llab quvvatlash va ularga yordam ko'rsatish usullarini;</li> <li>• Favqulotda xolatlarda patsientlarni evakuatsiya qilishda ishtirok etishni;</li> <li>• Tibbiy saralash va evakuatsiya qilish tartibini;</li> <li>• Tibbiy yordam ko'rsatuvchi xodimning o'rni va majburiyatlarini;</li> <li>• Terminal holatlar, klinik va biologik o'lim belgilarini;</li> <li>• O'tkir zaxarlanishlar, sabablari, belgilarini.</li> </ul>
<p><b>O'quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:</b></p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• favqulodda vaziyatlarda yuzga kelishi mumkin bo'lgan ekstremal xolatlarda tez tibbiy yordam ko'rsatishni;</li> <li>• Ommaviy talofat o'chog'ida birinchi yordam kursatishni;</li> <li>• Ko'p funksiyali zamonaviy apparatlarda ishlashni;</li> <li>• Jabrlanuvchini ahvolini baholash, birlamchi va ikkilamchi ko'riqdan o'tkazish texnikasini bajara olishni;</li> <li>• Tez tibbiy yordam ko'rsatilgan bemorlarni parvarishlashni ;</li> <li>• Yurak - o'pka reanimatsiyasi va uni bajarish algoritmini.</li> <li>• O'tkir zaxarlanishlarda shoshilinch yordam ko'rsatishni.</li> </ul>

<b>Foydalanadigan adabiyotlar:</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Tojiev M.X., Nigmatov I "Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi". O'quv qo'llanma –T: MChJ, Ta'lim manbai, 2002y</li> <li>2. Y. Allayorov. Y. Tojiboev "Favkulodda vaziyatlarda tez tibbiy yordam asoslari." 6-14-bet</li> <li>3. D.M . Sabirov, A.Z. Gazizov " Birinchi tibbiy yordam " O'quv qo'llanma Toshkent-2017y. 5-10 betlar</li> <li>4. <a href="http://hozir.org">http:// hozir/ org</a>&gt;</li> </ol>
------------------------------------	---

### 3.2.6. Modul: Respirator kasalliklarda shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish.

<b>O'quv moduliga ajratilgan kredit:</b>	<b>12 kredit</b>
<b>O'quv moduli mazmuni:</b>	<p>Nafas olishni baholash. Adekvat va noadekvat nafas olish belgilari va ularni aniqlash. O'tkir nafas yetishmovchiligi alomatlarini aniqlash, turlari, klinik kechishi, belgi va simptomlari, qiyosiy tashxisi. Nafas olish a'zolari o'tkir yetishmovchiligi kasalliklarining kelib chiqish sabablari, klinikasi, shoshilinch tibbiy yordam tadbirlari, davolash va parvarish. Nafas olishi buzilgan bemorlarga shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish. Traxeostomiya va konikotomiyani o'tkazish uchun bemorni va kerakli asbob-anjomlarni tayyorlash. Nafas olish a'zolari kasalliklaridashoshilinch yordam ko'rsatish va hamshira parvarishi. Ingalyatorlar, qo'llanilishi, ko'rsatmalar va qarshi ko'rsatmalar. AMBU kopchalari va havo o'tkazgichlarni ko'llanilishi;</p> <p>Nazofaringeal va orofaringeal havo o'tkazish naychasini o'lchash va ishlatish. Traxeyani intubatsiya qilish. O'tkir xavo yo'li obstruksiyasida Geymlix usuli.</p>
<b>O'quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• O'tkir nafas yetishmovchiligi kelib chiqish sabablari, klinikasini;</li> <li>• Gipoksiya turlarini;</li> <li>• Bolalar va keksa qishilar organizmining o'ziga xos hususiyatlarini;</li> <li>• Nafas olish a'zolari kasalliklarini kelib chekish sabablarni, klinikasini, diagnostikasini va tez tibbiy yordam kursatish hususiyatlarini;</li> <li>• Ingalyatorlar, qo'llanilishi, ko'rsatmalarni;</li> <li>• Traxeyani intubatsiya qilish haqida tushunchani;</li> <li>• Tez tibbiy yordam ko'rsatilgan bemorlarni</li> </ul>

	parvarishlash hususiyatlarini;
